

This is not registered version of TotalDocConverter
Yaqinsha ovozda qolishni qo'shib olib oshirish uchun.

Kimdir muloyim, yumshoq ovozda so'radi:

- O'rtoq Zoshchenkomisiz?

- Ha.

- Gap shundaki, biz kuchaytirgich ustida tajriba o'tkazyapmiz. Birorta hikoyangizdan uch-to'rt satr o'qib berishingizni o'tinib so'raymiz.

Kechiktirib bo'lmaydigan muhim yumushim bor edi. Uni to'xtatishni hecham xohlamasdim. Lekin men ko'ngilchan odamman.

Kamina, bundan tash-qari, har xil yangi ixtirolarni hurmat qilaman.

Telefon go'shagiga bir necha satrni o'qib berdim.

- Juda soz, - dedi muloyim ovoz. - Minnatdorman. Jarangdorlik alo darajada. Endi eshittirishimizni tinglab ko'rishingizni iltimos qilamiz. Marhamat, xonaning burchagiga borib turing. Va qulqoq tuting.

Go'shakni stol ustiga qo'ydim-da, o'n qadamcha yurib to'xtadim. Ikki daqiqalar chamasi tentakday g'o'dayib turdim. Keyin qaytib keldim.

- Qalay?

- Hech narsa eshitmadim.

- Unda besh qadamcha yuring va shu taxlit o'tiringki, qulog'ingiz go'shak bilan bir cathda bo'lsin.

Uzoqlashdim va o'tirib oldim.

- Qalay?

- Xudo haqqi, hech nimani eshitmayapman! - dedim jahl bilan.

- Unda, - dedi hamsuhbatim kula-kula, - go'shakni qo'ying va yotib uxlang.

Haligi odam yayrab, miriqib, entikib xoxolab kulardi.

Nimasini aytasiz, chindan ham juda xunobim chiqdi. Go'shakni uzib olishimga sal qoldi. Qarang-a, allaqanday yaramas meni o'n daqiqacha laqillatsa-ya. Hatto o'tirishga ham majburladi.

Keyin o'zimni bosib oldim. Hatto tirjayib qo'ydim. Nima bo'pti? Hammasi joyida. Syujet tayyor, yozsa bo'ladi. Dolzarb mavzu - telefon bezorilari haqida mo'b Tjazgina hajviy hikoya qoralash ham mumkin. Mana shu bo'limg'ur ishda yigirma rublni halol ishlab oldim.

Har bir bemanigarchilikning tagida hikmat bor, deb shuni aytsalar kerak-da.